

## **MUSTAQILLIK YILLARI SAMARQAND VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XORIJIYINVESTITSIYALARNING O'RNI (1991-2016 YY.)**

*Daminov Nabijon Abduolimovich*

*Navoiy davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida dotsenti, t.f.f. d (PhD).*

*Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning taraqqiy topgan davlatlar safida o'z o'rniga ega bo'lishining kafolati uning iqtisodiy taraqqiyotidadir. Ma'lumki, hozirgi sharoitda xorijiy investitsiyalarsiz iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmazligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganini nazarda tutsak, respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etish bag'oyat samarali ish ekani anglashadi. Samarqand viloyatida ya'ni 1991-2016 yillarda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishdagi sa'y – harakatlar va erishilgan natijalar va muammolar tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, xorijiy investitsiyalar, integratsiyalashtirish, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, iqtisodiy yaqinlashuv, chet el qo'shma korxonalari.*

## **THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF SAMARKAND REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (1991 -2016)**

*Daminov Nabijon Abduolimovich*

*Navoi State Pedagogical Institute, associate professor of the "National idea, foundations of spirituality and legal education" department, doctor of philosophy (PhD) in history.*

*Annotation: In the article, the guarantee of Uzbekistan's place among the developed countries is its economic development. It is known that almost every specialist and business entity realizes that the economy cannot be developed without foreign investments in the current conditions, and they understand that attracting foreign investments to the economy of our republic is a very effective thing. In Samarkand region, in 1991-2016, the efforts and efforts in attracting foreign investments and the achieved results and problems were analyzed.*

*Key words: Samarkand region, foreign investments, intergration, republic of Uzbekistan of foreign policy, foreign trade, closing economical, foreign joint venture.*

## **РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (1991 – 2016 ГГ.)**

*Даминов Набижон Абдуолимович*

*Навоийский государственный педагогический институт, доцент кафедры «Национальная идея, основы духовности и правового воспитания», доктор философский наук (PhD) по истории.*

*Аннотация: В статье залогом места Узбекистана среди развитых стран является его экономическое развитие. Известно, что практически каждый специалист и субъект предпринимательства осознает, что без иностранных инвестиций в нынешних условиях развитие экономики невозможно, и понимают, что привлечение иностранных инвестиций в экономику нашей республики – это очень эффективное дело. В Самаркандской области, то есть в 1991-2016 годах, были проанализированы усилия и усилия по привлечению иностранных инвестиций и достигнутые результаты и проблемы.*

*Ключевые слова: область Самарканд, зарубежные инвестиие, интеграция, внешняя политика республики Узбекистан, внешняя торговля, экономическое сотрудничество, совместные зарубежные компании.*

*Kirish. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular o'z iqtisodiyotini yuksaltirish jarayonida, albatta, u yoki bu turdagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishgan. Bunday tajriba O'zbekiston Respublikasiga ham xos xususiyat sanaladi. Xorijiy investitsiyalar xalq xo'jaligi tarmoqlari iqtisodiyotiga jalb etilgan taqdirda bu tarmoqlar rivojlanadi, ya'ni aholi bandligi o'sadi, tovar xizmatlarining asosiy o'lchov mezon bo'lgan sifat yaxshilanadi, ichki iste'mol bozorlari mustahkamlanadi, davlatga import qilinishi lozim bo'lgan tovarlar va xizmatlar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Davlatlararo iqtisodiy yaqinlashuv, siyosiy muzokaralar orqali strategik hamkorlik qilinishining yangi bosqichlariga erishiladi.*

*Adabiyotlar sharhi. Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilinish tarixi ilmiy jihatdan kam o'rganilgan. Shu sababdan, bu mavzu tadqiq etishda arxiv manbalari fondida saqlanayotgan hujjatlar asosiy manba vazifasini bajardi. Qolaversa, davriy matbuot materiallaridan o'z*

navbatida mavzu mazmunini oydinlashtirishga xizmat qiladigan manbalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu mavzuni yoritishda tizimli – xronologik va qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan holda ishdagi yutuqlar va muammolar yoritib berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston Respublikasidagi investitsiyalar tuzilmasi va xususiyati takror ishlab chiqarishni kengaytirish dinamikasi va yo'nalishini belgilab beradi. Yangi korxonalarini qurish, amaldagilarini texnologik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda, yangi ish o'rinlari barpo etilmoqda [1].

Hozirgi sharoitda xorijiy investitsiyalarsiz iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmashligini deyarli har bir ziyoli mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganini nazarda tutsak, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etish bag'oyat samarali ish ekani yaqqol anglashiladi. Shuning uchun ham bu yo'nalishga alohida e'tibor bilan qarash va uni rivojlantirishga ahamiyat berilishi zarur.

Samarqand viloyatida xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Samarqand viloyati zamini tabiiy xomashyo va intellektual salohiyatga juda boy hisoblanadi, bunda chet el investitsiyalarini jalb qilishning katta imkoniyatlari mavjud bo'lib, jumladan:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;

Avtomobillar va avtomobillar uchun ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish;

Marmar, granit, albaster, qurilish materiallarini sanoat asosida ishlab chiqarish;

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish;

Trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish;

CHorva mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash;

Milliy xalq hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish;

Turizmni rivojlantirish.

Samarqand viloyati sarmoyaviy salohiyati 1991–2016 yillarda tub o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bunday o'zgarishlarning yo'nalishi investitsiya kiritilish jarayonlarini o'ziga xos bosqichlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. P.SH. Xushbaqov “Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi: muammo va ziddiyatlar (Samarqand viloyati misolida)” mavzusidagi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida 1991–2001 yillarda Samarqand viloyatiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi [2] to'g'risida to'xtalgan, lekin investitsiyalarning jalb qilinishini alohida bosqichlarga bo'lmagan. Tarixchi olim U.O. Narzullayev o'zining “Navoiy viloyatining zamonaviy tarixi va barqaror rivojlanish omillari”[3] mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasida Navoiy viloyatiga investitsiyalarning jalb qilinishini to'rt bosqichga bo'lgan, ya'ni birinchi bosqich 1991 – 1995 yillar, ikkinchi bosqich 1996–2007 yillar, uchinchi bosqich 2008–2016 yillar, to'rtinchi bosqich – 2017 yil va undan keyingi yillar.

YUqoridagi fikrlar umumlashtirilib qiyosiy tahlil qilinar ekan, Samarqand viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish va bunda xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini besh bosqichga bo'lib tasniflash mumkin, deb hisoblaymiz. Bunga ko'ra, birinchi bosqich 1991–1994 yillarni, ikkinchi bosqich 1995 – 1999 yillarni, uchinchi bosqich 2000–2007 yillarni, to'rtinchi bosqich 2008–2014 yillarni, beshinchi bosqich 2015 yil undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida jarayonlar barcha sohalarda cheklangan investitsiya resurslari sharoitida kechdi. Investitsiyaning barcha moliyaviy manbalari va mulkchilik shakllari bo'yicha kuzatilgan taqchilligi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Mazkur davr investitsiya faoliyatining o'ta murakkab davri hisoblanadi. Tarixchi U.O.Narzullayev dissertatsiyasida shunday deydi: “Salohiyatli investorlar erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy sharoitning shakllanish bosqichida ekanligi, davlat investitsiya siyosatida esa investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan mablag'larning to'la himoyalanganligi, bank kreditlari uchun sanoatdagi tavakkalchilikning yuqori darajada ekani, bozor iqtisodiyotining tartibsiz va shiddatli raqobati, yillik inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining muomalaga chiqarilmaganligi investitsiya jalb etish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar hisoblanadi” [4].

1994 yildan boshlab viloyat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiya va iste'mol harakati muvozanatga kela boshladi. Samarqand viloyati investitsiya imkoniyatlari kengligi, hududda tashkil topgan yuqori intellektual injener-texnik salohiyat, uning tabiiy resurslari, er osti va er usti boyliklari investorlarni o'ziga jalb eta boshladi [5]. Ushbu bosqichda bozor infratuzilmasi vujudga keldi. Uning me'yoriy-huquqiy bazasi, xususiy sektor, soliq siyosati shakllanib bordi. SHuningdek, kichik va o'rta korxonalarini, uy-joy fondini, ijtimoiy soha tarmoqlaridagi korxonalarini (umumiy ovqatlanish, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish kabilarda) faol xususiylashtirish jarayoni boshlandi hamda yirik korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishga

tayyorgarlik ko'ri borib, eng muhimi, O'zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlarning to'laqonli sub'ektiga aylandi.

Bu bosqichning dastlabki yillarida mamlakatga investitsiya jalb etish, uni davlat tomonidan muvofiq lashtirish hamda tartibga solishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi unchalik shakllanib ulgurmagan bo'lsa-da, Samarqand viloyatining ichki imkoniyatlari, asosan, ishlab chiqarish uchun tabiiy resurs salohiyatining yuqori darajada ekani yirik investitsiyalar hajmini o'z iqtisodiyotiga jalb etishga ma'lum darajada muvaffaq bo'ldi. 1994 yilda Samarqand shahrida Angliya davlati bilan birgalikda tashkil etilgan "Samko-Koka Kola" qo'shma korxonasi tomonidan viloyat iqtisodiyotiga 209 ming AQSH dollari hajmida investitsiya kiritilgan edi [6].

Ikkinchi bosqich 1995 – 1999 yillarni qamrab oladi. 1995 yilga kelib O'zbekiston Respublikasiga 11 milliard 800 million so'mlik xorijiy investitsiya kiritilgan bo'lib, shundan Samarqand viloyati ulushi 4 foizni tashkil etgan, jumladan, "Samjinteks" qo'shma korxonasi 446 million 800 ming so'm, "Biznes markaz" 12,5 mln. so'm, "Folkswagen avtomobil markazi" 5 million so'm investitsiya kiritgan [7]. Samarqand viloyati qo'shma korxonalarini 1997 yilda 5 milliard so'm hajmida investitsiya kiritgan. 1998 yilga kelib mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 7,5 foizi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 13 foizi, xalq iste'mol mollarining 13,5 foizi Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri keldi. Samarqandning iqtisodiy salohiyati bilan har tomonlama rivojlangan industriya, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, xizmat ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli katta kuch-qudratga ega bo'lgan iqtisodiyotni tasavvur qilish kerak. Samarqand viloyati iqtisodiyotiga 1998 yilda 68 million 700 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy sarmoya jalb etilganligi e'tiborga loyiqdir. Bu ko'rsatkich 1997 yilga nisbatan qariyb 10 million AQSH dollariga ko'p demakdir [8]. Viloyatda chet el kredit liniyalari hisobidan 1999 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 3 ta loyiha bo'yicha 3 million 99 ming AQSH dollari hisobida moliyalashtirilgan. SHundan ikkita loyiha bo'yicha "Urgut-ladamarmar" qo'shma korxonasi 1 million AQSH dollari va "Afrosiyob – marmar" xususiy korxonasi 2 million 700 ming AQSH dollari orqali evropa rivojlanish va Taraqqiyot Bankining birinchi kredit liniyasi hisobidan moliyalashtirilgan [9]. Bitta loyiha bo'yicha "Nyu-York–Samarqand–industrial interrayz" qo'shma korxonasi Osiyo rivojlanish kredit liniyasi hisobidan 289,0 ming AQSH dollariga moliyalashtirilgan. evropa rivojlanish va Taraqqiyot Bankining ikkinchi kredit liniyasi orqali yiliga 4,4 mln. juft paypoq ishlab chiqarish uchun "Munlayt" qo'shma korxonasi 3 million 996 ming AQSH dollariga hamda yiliga 10 ming kub metr marmar ishlab chiqarish uchun "Samarqandmarmar" hissadorlik jamiyatiga 819 ming AQSH dollari, Osiyo rivojlanish Banki birinchi kredit liniyasi orqali yiliga 1680 tonna pasta va 1908 tonna meva konservalari ishlab chiqarish uchun "Ishtixon konserva" aksiyadorlik korxonasi 2 million 514 ming AQSH dollari mablag'lari bilan moliyalashtirilgan [10].

Samarqand viloyatiga 1999 yilga kelib kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun xorijiy banklar kredit liniyalari bo'yicha jami 10 yil mobaynida 13 million 400 ming AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirilgan. SHundan evropa rivojlanish va Taraqqiyot Banki kredit liniyasi hisobidan beshta loyihaga 9 million AQSH dollari, Osiyo rivojlanish Banki hisobidan uchta loyihaga 4 million AQSH dollari hamda boshqa xorijiy kredit liniyalari orqali ikkita loyihaga 0,4 mln. AQSH dollari hisobida investitsiya jalb etilgan. Viloyat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor berganligi uchun 1999 yilda 6 milliard 700 million so'mlik xorijiy investitsiya kiritilgan [11].

Samarqand viloyatida iqtisodiyotni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalar jalb qilishning uchinchi bosqichi 2000–2007 yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda xorijiy investitsiyalar kiritish hajmi oshibgina qolmay, o'zining iqtisodiy samarasini, amaliy natijalarini ham bera boshladi. 2000 yilning o'zidayoq Samarqand viloyatida investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 39,9 mlrd. so'mlik sarmoya, shundan 5 milliard 100 million so'mlik xorijiy investitsiya kiritilgan. Viloyatga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1999 yilga nisbatan 3,8 foizga o'sgan [12]. Samarqand viloyatida 2003 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilishning izchil davom ettirilishi natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ta'minlangan. Yalpi hududiy ichki mahsulot 6,9 foizga, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 11,1 foizga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 6,8 foizga o'sgan. Asosiy sarmoyalar, ya'ni investitsiyalar kiritish 7,9 foizga o'sdi, aholining pul daromadlari 45,5 foizga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan kreditlar 20,4 foizga o'sgan. Tashqi savdo aylanmasi hajmi 4,9 foizga, eksport hajmi 7,5 foizga o'sgan. Tashqi savdo aylanmasida 4 million AQSH dollaridan ortiq miqdorida ijobiy saldoga erishilgan. Viloyatda faol, puxta o'ylangan investitsiya siyosatining amalga oshirilishi natijasida 2003 yilda viloyat iqtisodiyoti qariyb 109 million AQSH dollarini tashkil etdi [13]. Samarqand viloyatida 2005 – 2007 yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hududiy dasturi ishlab chiqilgan. SHu dasturga muvofiq viloyatda 2005 yilda

16 ta loyiha bo'yicha jami 7 million 200 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi hamda 636 ta yangi ish o'rinlarining yaratilishi belgilangan. Natijada dasturga nisbatan joriy yil (2005 yil) da 26 ta loyiha bo'yicha jami 37 million 600 ming AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, 122,2 foizga o'sishi ta'minlangan, 940 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, bu ish 147,8 foizga bajarilgan [14]. Xorijiy investitsiyalarning salmog'i ko'pashishi natijasida viloyat iqtisodiyoti yuksalib ishsiz aholi ish bilan ta'minlanishi va turmush sharoitlari yaxshilashiga omil bo'ldi.

Xullas, Samarqand viloyatida 2007 yilda 42 million AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya kiritilishi natijasida 21 ta sanoat korxonasi ishga tushirilgan va 933 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan [15].

Samarqand viloyatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulayliklar yaratish hamda iqtisodiyotni yuksaltirish maqsadida viloyat hokimligi tomonidan, 2008-2014 yillarni o'z ichiga olgan etti yillik dastur ishlab chiqilgan. Shu yillarda xorijiy investorlar uchun imtiyozlarning keng tizimi yaratildi. O'zbekiston investitsiya borasida ishonchli hamkor, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni qat'iyon bajaradigan mamlakat sifatida e'tirof etildi. Xorijiy sarmoyadorlarga yaratilgan rag'batlantirish mexanizmi ba'zilar taxmin qilganidek "moliyaviy qopqon" sifatida emas, balki tom ma'noda investitsiya iqlimini yanada qulaylashtirish, ishbilarmon va tadbirkorlar uchun O'zbekistonning xalqaro investitsiya bozorida raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Mamlakat investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan ana shunday chora-tadbirlar natijasida respublikaga kiritilayotgan investitsiyalar sezilarli darajada ortdi, 2008 yilda 23,3 foizga ko'paydi. Shu davrda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 8 trln. 483,7 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar ajratilgan. Boshqacha aytganda, 2008 yilda respublikamiz iqtisodiyotiga 64 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007 yilga nisbatan 28,3 foiz ko'pdir. Uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 23 foizni tashkil etdi. Samarqand viloyatiga 2007 yilda 42 million AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etilgan bo'lsa, 2008 yilda 281 milliard 100 million so'm xorijiy investitsiya jalb etildi [16].

2008–2014 yillarida Samarqand viloyati hududiy investitsiya dasturiga asosan jami 312 ta loyiha bo'yicha 316 million 100 ming AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etilgan. Viloyatda 2008 yilda 32 ta loyiha bo'yicha 18 million 800 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb etilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 50 ta loyiha bo'yicha 57 million 300 ming AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilingan. 2014 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2008 yilga nisbatan 3 barobarga, ya'ni 304 foizga o'sgan [17]. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar natijasida o'tgan davr mobaynida viloyatda zamonaviy texnologiyalar bilan faoliyat ko'rsatayotgan 90 dan ortiq qo'shma va xorijiy korxonalar faoliyatini boshlagan. Samarqand viloyatiga 2009 yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hududiy dasturi asosida bir yilda jami 65 ta loyiha bo'yicha 37 million 400 ming AQSH dollari miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilgan, natijada 150 milliard so'mlik sanoat korxonalarini qo'shimcha mahsulotlar chiqarishga hamda 14 million AQSH dollari miqdorida mahsulotlarni eksport qilishga va 1474 ta yangi ish o'rinlarining yaratilishiga erishilgan. Ushbu investitsiyalar Samarqand shahri, Jomboy, Paxtachi, Urgut va Samarqand tumanlari korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi.

Samarqand viloyatiga 2010 yil davomida barcha manbalar hisobidan 18 milliard 400 million so'mlik investitsiya jalb etildi. SHU xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb etish hududiy dasturi asosida 9 ta loyiha bo'yicha jami 4 million 904 ming AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilgan va bu belgilangan rejaga nisbatan 117,3 foizni tashkil etgan. Natijada viloyat sanoat korxonalarida 46 milliard so'mlik qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarilgan hamda 3 million 500 ming AQSH dollari miqdoridagi mahsulot eksport qilingan, 1290 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishilgan [18]. Investitsiyalarning jalb qilinishi natijasida viloyatda engil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari, kimyo, charm-poyabzal, farmatsevtika va boshqa sanoat sohalari rivojlandi. Buning evaziga viloyatda jahon talablariga javob beradigan mahsulotlarni tayyorlash jarayoni jonlandi hamda viloyatning eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida respublika hududlaridagi mahalliy hokimlar tomonidan engil sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlash uchun sohaga investitsiyalarni jalb etishga e'tibor berilmayotgani tanqid qilingan edi. Prezidentning ma'ruzasidan so'ng Samarqand viloyat mahalliy hokimligi va shu sohaga tegishli mutasaddi rahbarlarining javobi tariqasida, 2010 yilda viloyat iqtisodiyotining etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlashni jadallashtirish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar 1,8 barobarga o'sgan. SHundan so'ng to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 7 million 800 ming AQSh dollarini tashkil etgan hamda 180 ta loyiha amalga oshirilgan, 3012 ta yangi ish o'rinlari

yaratilgan. Samarqand viloyati 2010–2012 yillarda engil sanoatni rivojlantirish maqsadida 7 million 600 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan hamda 285 ta yangi ish o'ri tashkil etishga erishgan [19]. Shu sa'y-harakatlardan so'ng Samarqand viloyati o'zining iqtisodiy, intellektual salohiyati bilan mamlakatda etakchi o'rinlardan birini egallab kelishga sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, investitsiya – iqtisodiyot rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch, u korxonalarni texnologik tomondan ta'minlab, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga ko'maklashadi. Viloyatda 2012 yil hududiy investitsiya dasturiga asosan 32 ta loyiha bo'yicha 54 million 800 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya jalb etilishi belgilangan. 2012 yilning yakuniga ko'ra esa ushbu dastur doirasida 41 ta loyiha amalga oshirilgan. Buning samarasi o'laroq 58 million 588 ming 500 AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilgan, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 137,0 foizga o'sishga erishilganidan dalolatdir. Eng muhimi, uning 15 million 801 ming 800 AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va 10 million 27 ming 400 AQSH dollari xorij kreditlari hisoblanadi [20].

Ma'lumki, investitsiya xorijlik ishbilarmonlar uchun qulay muhit yaratilgan hududlargagina yo'naltiriladi, Samarqand viloyatida shunday shart-sharoitlar mavjud. Viloyatga olti yil (2006 – 2012 yillar) mobaynida Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Janubiy Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Fransiya, SHveysariya, Yaponiya ishbilarmonlari o'z sarmoyalarini kiritdi. Xorijiy investitsiyalarni tarmoqlar kesimida tahlil etadigan bo'lsak, bunda asosiy ko'rsatkich engil sanoat ulushiga to'g'ri keladi. Tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar mavjud sarmoya miqdoring 41,8 foizini tashkil etadi. Vaholanki, bu miqdor 2011 yilda 35,9 foizni tashkil etgan. SHuningdek, qurilish mollarini ishlab chiqarishda 30,9 foiz, oziq-ovqat sanoatida 19,1 foiz hamda metalni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi shuningdek, turli xizmatlar ko'rsatishda ham investitsiyaning salmoqli ulushi bor [21].

O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasida Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 31 maydagi "Davlat mulki ob'ektlaridan kelgusida samarali foydalanish va ularni tasarruf etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosining bajarilishi bo'yicha Boshqarma boshlig'i E.Qurbonov, Zarafshon gazetasining muxbiri Sh.Sanayev bilan muloqotda, jumladan, yuqoridagi ko'rsatilgan yilda viloyatga xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish borasida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Xususan, viloyatning 2013 yilga mo'ljallangan xorijiy investitsiyalari va kreditlarni jalb qilish hududiy Dasturiga asosan viloyatga 2013 yilda 14 ta loyiha bo'yicha jami 54 million 900 ming AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etilishi belgilangan. Viloyatda 2013 yilning olti oy yakuniga ko'ra dastur doirasida qo'shimcha 29 ta loyiha bilan birga, jami 26 million 336 ming 600 AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilgan va 2012 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foiz o'sishga erishilgan [22].

2008–2014 yillarda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 1,9 barobarga o'sib, Respublika yalpi ichki mahsulotining 6,3 foizni etib, shu davr mobaynida aholining real daromadlari aholi jon boshiga 3,3 barobarga o'sgan [23]. Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosatini yuritish eng muhim omil ekanligini hayotning o'zi isbotladi. 2008–2014 yillar viloyat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 8,3 trln. so'mlik kapital mablag' o'zlashtirilgan, shundan 53,4 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va ishlab chiqarishni oshirishga sarflangan. Bunda jami kapital qo'ymalarning 390 million AQSH dollaridan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qilgan. Xorijiy investitsiyalarning 50 foizi to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan. Shu etti yil ichida (2008 – 2014 – dissertant) investitsiya dasturi asosida viloyatda jami 1844 ta ijtimoiy soha ob'ektlari, shundan 451 ta bolalar sporti, 26 ta musiqa va san'at maktablari, 595 ta boshqa ob'ektlar yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi hamda kapital ta'mirlandi [24].

Samarqand viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning beshinchi bosqichi 2015 yil va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida" [25]gi Qonunning qabul qilinishi Samarqand viloyatining iqtisodiyotini yanada yuksaltirishga xizmat qildi. 2015 yilda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlari samarasi o'laroq viloyatda 9 oy davomida iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 2 trillion 52 milliard so'mni tashkil etgan. Bu 2014 yilga nisbatan 126,4 foizga ko'pdir [26]. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar, asosan, engil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari, charm-poyabzal sanoati, farmatsevtika, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirilgan hamda 1167 ta yangi ish o'ri yaratilgan.

Xulosa. Viloyatning ulkan iqtisodiy salohiyatidan yanada samarali foydalanish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ular ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirish va qo'shma korxonalar miqdorini ko'paytirish bugungi modernizatsiyalashuv jarayonida ayni muddaodir. Qo'shma korxonalar tashkil etishning zarurati tovar ishlab chiqarishni ko'paytirishga sezilarli hissa qo'shdi va xalqaro savdoda tovar almashuvi hamda keng xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Ma'lumki, ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyoti rivojini jadallashtiradi va davlat mavqeining xalqaro doirada ortib borishini ta'min etadi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyatida investitsiya muhiti yildan-yilga barqarorlashib va yaxshilanib borgan. Ana shu ijobiy o'zgarishlardan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan yirik hajmdagi va ustuvor yo'nalishlardagi investitsiyalar oqimi sur'atlarini yanada oshirish talab etiladi. Tan olish joizki, 1991–2016 yillarda xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillar ham bo'ldi, bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Konvertatsiya muammosi;
2. Samarqand viloyatida yigirma besh yil davomida internet aloqalari va axborot almashish tizimining zamon talabi darajasida hal etilmaganligi;
3. Investorlar faoliyatining himoya qilinishdagi huquqiy normalar ijrosini ta'minlashda muammolar borligi;
4. Xorijiy investorlarning Samarqand viloyatidagi mavjud investitsiya salohiyati va muhiti to'g'risida reklama tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmadi.

#### Adabiyotlar

1. YUldashev R. Investitsiyaviy faollik iqtisodiyotni rivojlantirish omili. //Jamiyat va boshqaruv, 2010 № 2-son.
2. Xushbaqov P.SH. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi: muammo va ziddiyatlar (Samarqand viloyati misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2007.– B. 20.
3. Narzullayev U.O. O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining zamonaviy tarixi va barqaror rivojlanish omillari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 57,64, 65.
4. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 292- yig'ma jild, 187-varaq.
5. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 292- yig'ma jild, 187-varaq.
6. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1- fond, 1-ro'yxat, 877-yig'ma jild, 100-varaq.
7. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1410-yig'ma jild, 135- varaq.
8. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1410- yig'ma jild, 135- varaq.
9. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1410-yig'ma jild, 135- varaq.
10. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1404-yig'ma jild, 13-varaq.
11. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1455-yig'ma jild, 156- varaq.
12. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1455-yig'ma jild, 156- varaq.
13. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, ro'yxat, 1451-yig'ma jild, 133- varaq.
14. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1448-yig'ma jild, 194- varaq.
15. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxivi. 23.12. 2006 yil hisoboti. – B.16.
16. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 22.12. 2008 yil hisoboti. – B.17.
17. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxivi ma'lumoti. 25.12. 2009 yil hisoboti. – B.84.
18. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxivi ma'lumoti. 14. 12. 2015 yil hisoboti. – B.32.
19. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 2325-yig'ma jild, 112- varaq.
20. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 2407-yig'ma jild, 100- varaq.
21. Samarqand viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 2407-yig'ma jild, 100 – varaq.
22. Haydarov A. Investitsiya–yuqori sifat, bejirim dizayn, muhimi, iqtisodiy yuksalish omili. //Zarafshon gazetasi, 2013 yil 26 mart.
23. Samarqand viloyat Iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 23.12. 2013 yil hisoboti. B. 26.
24. Sanayev SH. Investitsiya oqimi iqtisodiyot rivojining muhim omili. //Zarafshon gazetasi, 2013 yil 23 iyun.
25. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 14. 12. 2015 yil hisoboti. B.24.
26. Samarqand viloyat iqtisodiyot boshqarmasining joriy arxiv ma'lumoti. 14. 12. 2015 yil hisoboti. – B.32.